

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



**TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI 301-KASB TA'LIMI (BUXGALTERIYA
HISOBI VA AUDIT) GURUHI TALABASI O'RINBOYEV QAHRAMONNING
MOLIYAVIY HISOB FANIDAN TAYYORLAGAN**

KURS ISHI

**MAVZU: Xo'jalik yurituvchi subektlarning tashqi iqtisodiy
faoliyatini hisobga olish**

TAYYORLADI: O'rinboyev Qahramon.

TEKSHIRDI: Xudayberganov Jasur.

URGANCH-2016

**Mavzu: Xo'jalik yurituvchi subektlarning tashqi
iqtisodiy faoliyatini hisobga olish**

Reja:

I. Kirish

II. Asosiy qism:

- 1. Xo'jalik yurituvchi subektlarning xorij kompaniya va firmalari bilan moliyaviy xojalik muomilalari yo'nalishlari.**
- 2. Xo'jalik yurituvchi subektlarning tashqi iqtisodiy faoliyati nazorati.**
- 3. Maxsulot, ish va xizmatlarning eksporti hisobi.**
- 4. Maxsulot, ish va xizmatlarning importi hisobi.**
- 5. Barter usuli.**
- 6. Maxsulot, ish va xizmatlarning eksporti va importuning yakuniy moliyaviy natijasi hisobi.**

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. 2015-yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014-yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir. Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015-yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi. Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida 370 megavatt quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasi barpo etildi, Chorvoq GESi gidrogeneratorlari modernizatsiya qilindi, Qo'ng'iro't soda zavodida kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarish kengaytirildi, «Samarqandkimyo» aksiyadorlik jamiyatida 240 ming tonna quvvatga ega bo'lgan murakkab tarkibli yangi o'g'itlar ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi. Shuningdek, «Motor zavodi» aksiyadorlik jamiyatining faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida traktor tirkamalari, jumladan, katta hajmli tirkamalar, maishiy texnika uchun tarkibiy qismlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etildi. Ana shunday muhim obyektlar haqida gapirganda, janubiy koreyalik investor va mutaxassislar bilan hamkorlikda Surg'il koni negizida barpo etilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasini alohida ta'kidlamogchiman.

Umumiy qiymati 4 milliard dollardan oshadigan ushbu majmua dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan, yirik korxonalardan biri bo'ldi. Majmuaning ishga tushirilishi yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini beradi. Holbuki, bu mahsulot ilgari mamlakatimizga chetdan, katta valyuta hisobiga olib kelinardi. Ayni vaqtda mazkur korxona polietilen ishlab chiqarish hajmini 3,1 barobar ko'paytirish, mingdan ziyod yuqori malakali mutaxassislarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyat yaratishi bilan ulkan ahamiyatga egadir. Xorazm viloyatida «Jeneral motors – O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 million dollarlik loyiha asosida «Shevrole Labo» kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu yerda yiliga fermerlarimiz va xususiy tadbirkorlarimiz uchun juda zarur bo'lgan 5 mingta ana shunday mashina ishlab chiqariladi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu model yangi «Xorazm avto» zavodida tayyorlanayotgan «Damas» va «Orlando» avtomobillaridan keyingi uchinchi turdagi avtomobil bo'ldi. Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kilovatt quvvatga ega bo'lgan quyosh

fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Hozircha bu loyiha sinovdan o'tkazilmoqda. 2020-yilga borib mamlakatimizda har biri 100 megavatt quvvatga ega yana uchta quyosh elektr stansiyasini foydalanishga topshirish rejalashtirilmoqda. Samarqand – Qarshi temir yo'l uchastkasida yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» elektr poyezdi qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu Toshkent – Qarshi yo'nalishi bo'yicha yo'lovchi tashish sifati va sur'atini oshirish imkonini bermoqda. Natijada poytaxtimizdan Qashqadaryo viloyatiga va Qarshidan Toshkentga yo'lovchilar tashish vaqti ikki barobar qisqardi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o'tgan yili mo'l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi. Ta'kidlash kerakki, bunday mo'l hosil asosan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g'o'za va boshqali don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish evaziga ta'minlandi. Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi. Qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi.

Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda. Bularning barchasi fidoyi dehqon va fermerlarimiz, barcha qishloq xo'jaligi xodimlarining mashaqqatli va sharaflil mehnati mahsulidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. O'tgan yili iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, bandlikni ta'minlash, odamlarimizning daromadi va hayot sifatini oshirishning muhim omil va yo'nalishlaridan biri tariqasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish borasidagi tizimli ishlar izchil davom ettirildi. 2015-yilda yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri kelgani bu tarmoqning iqtisodiyotimizdagi o'rni va ta'siri naqadar katta ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda xizmat

ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010-yildagi 49 foizdan 54,5 foizga yetdi. Jami band aholining yarmidan ko'pi ushbu sohada mehnat qilmoqda. Bank, sug'urta, lizing, konsalting va boshqa turdagi bozor xizmatlari barqaror sur'atlar bilan rivojlanmoqda, ular xususiy sektor va kichik biznes rivojiga xizmat qilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida 80 ming 400 ta kichik biznes subyekti faoliyat yuritmoqda va bu xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari umumiy sonining 80 foizdan ortig'ini tashkil qiladi. Qishloq va tumanlarimizda xizmat ko'rsatish sohasini izchil rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal rivojlantirish dasturi doirasida so'nggi uch yilda 22 ming 800 dan ortiq loyiha amalga oshirildi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi 1,6 barobar, qishloqda bir kishiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 1,5 barobar oshdi.

Bugun 2015-yilning yakunlariga bag'ishlangan ushbu ma'ruza ana shu davrda erishgan marralar va raqamlar haqidagi ma'lumotlar bilan emas, avvalo ayni o'tgan yilda hayotga keng ko'lamda tatbiq etilgan islohotlarimiz va katta ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlarga oid fikrlar bilan boshlangani bejiz emas, albatta. Buning boisi shundaki, agar ana shu amaliy ishlarimizni hal qiluvchi islohot va yangiliklardan boshlamasak, o'z-o'zidan ayonki, biz kutayotgan barqaror o'sish sur'atlari bilan rivojlanishni qo'lga kiritishni aslo tasavvur etib bo'lmaydi.

2015-yilda amalga oshirgan keng ko'lamli, uzoqni ko'zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferensiyalar yo'lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va joriy etish iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi. Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya'ni prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'ldi. Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014-2015-yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017-yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani albatta barchamizga mamnuniyat yetkazadi. Bundan tashqari, 2015-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi. O'tgan yili bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiyaviy faolligini kengaytirish ta'minlandi. Bank tizimining jami kapitali

2014-yilga nisbatan 23,3 foiz ko‘payib, 7 trillion 800 milliard so‘mga yetdi. So‘nggi 5-yilda mazkur ko‘rsatkich 2,4 barobar o‘ydi. Bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi qariyb 24 foizni tashkil qildi. Bu umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3-marta, bank likvidligi esa eng yuqori ko‘rsatkichlardan 2-marta ko‘pdir. Jahon miqyosida savdo-sotiq ishlarining o‘shish sur‘ati sezilarli darajada sustlashgani, eksport qilinadigan eng muhim tovarlarga nisbatan tashqi talabning kamayishi va narxlarining pasayishiga qaramasdan, biz tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldogga erishdik. Bu esa davlatimizning oltin-valyuta zaxirasini oshirish imkonini berdi. Davlat qarzi darajasining pastligi, ya‘ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan 18,5 foizdan oshmagani ham mamlakatimizda erishilgan ijobiy natijalar va makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. O‘ta og‘ir va murakkab vaziyatda qo‘lga kiritilgan bunday yutuq va marralar avvalo chuqur va atroflicha o‘ylangan siyosatning natijasi bo‘lib, ularning zahirida mehnatkash, mard va matonatli xalqimizning qahramonona mehnati mujassam ekanini ko‘ramiz. Iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish sohasining yuqori sur‘atlar bilan barqaror o‘shishi biz uchun eng muhim ustuvor yo‘nalish bo‘lgan – aholi bandligini ta‘minlash, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratdi. 2015-yilda mamlakatimizda 980 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil qilingan bo‘lsa, shuning 60 foizdan ziyodi qishloq joylarda yaratildi.

Kollejlarning 480 mingdan ortiq bitiruvchisi ish bilan ta‘minlandi. Tijorat banklari tomonidan ularga o‘z biznesini tashkil qilish uchun 280 milliard so‘mga yaqin imtiyozli kreditlar ajratildi va bu 2014-yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘pdir. 2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur‘atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko‘paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010-yildagi 47,1 foiz o‘rniga 52 foizga o‘sgani va bu Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridagi ko‘rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori ekanini alohida ta‘kidlashni istardim. O‘zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e‘tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o‘ta boylar ham, o‘ta kambag‘allar ham bo‘lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani sizlarga yaxshi ma‘lum, albatta. Yurtimizdagi 10 foiz ta‘minlangan va 10 foiz yetarlicha ta‘minlanmagan aholi daromadlari o‘rtasidagi farq, ya‘ni «detsil koeffitsienti» deb nom olgan ko‘rsatkich barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu raqam 2010-yildagi 8,5 foiz o‘rniga 2015-yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Daromadlar o‘rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir xalqaro ko‘rsatkich – Jini indeksi mamlakatimizda 2010-yildagi 0,390 o‘rniga 2015-yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija

dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir. Aholi daromadlarining ortishi natijasida ichki iste'mol talabi kengaymoqda. Chakana savdo aylanmasi bir yilda 15 foizdan ziyod, pullik xizmatlar hajmi esa 10,8 foizga o'sdi.

Aholining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanish darajasida ham sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Bugungi kunda ushbu tovarlarning aksariyati mamlakatimizda ishlab chiqarilmoqda. Xususan, har 100 oilaning 42 tasi yengil avtomobillarga ega bo'lib, bu besh yil avvalgi ko'rsatkichdan 1,5 barobar ko'p, 47 ta oila shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan va bu davrda o'sish 3,9 barobarni tashkil etdi. Shuningdek, har 100 ta oiladan 31 tasi konditsionerga ega yoki bu boradagi o'sish 1,7 barobarga teng, har 100 ta oilaga 234 ta mobil telefon to'g'ri kelmoqda yoki bu sohadagi o'sish 1,6 barobarni tashkil etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida mustaqil tashkilotlar guruhi va xalqaro ekspertlar ishtirokida 2015-yilda 158 ta davlatda "Dunyoning eng baxtli mamlakatlari" degan mavzuda tadqiqot o'tkazildi. Har qaysi mamlakatning o'z fuqarolarini baxtli hayot bilan ta'minlash qobiliyatini ifoda etadigan ushbu indeks bo'yicha O'zbekiston 44-o'rinni egalladi. Aytish joizki, yurtimiz 2013-yilda bu reytingda 60-o'rinda edi. O'tgan yili ta'lim-tarbiya sohasini yanada isloh etish va takomillashtirish masalasi ham diqqat markazimizda bo'ldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir.

2015-yilda bu sohada 384 ta obyektning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha qiymati 423 milliard so'mlik ishlar amalga oshirildi, namunaviy loyihalar asosida 29 ta yangi umumta'lim maktabi barpo etildi, 219 ta maktab rekonstruksiya qilinib, 136 tasi kapital ta'mirlandi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2 ming 200 talabaga mo'ljallangan yangi zamonaviy o'quv korpusi, sport majmuasi, shuningdek, o'quv jarayoniga jalb etilgan xorijlik mutaxassislar uchun mehmonxona barpo etildi. Navoiy davlat konchilik institutida yangi o'quv binosi qurilishi nihoyasiga yetkazildi.

Oliy ta'lim sohasida oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilarini muntazam qayta tayyorlash bo'yicha mutlaqo yangi, takomillashtirilgan tizim joriy qilindi. 15 ta tayanch oliy o'quv yurtida oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish kurslari tashkil etildi. Mazkur kurslarda oliy o'quv yurtlarining 2 ming 700 ga yaqin o'qituvchisi malaka oshirdi.

Biz uchun bebaho boylik bo'lgan xalqimizning sog'lig'ini saqlash maqsadida 2015-yilda 141 ta tibbiyot muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash uchun qariyb 500 milliard so'm mablag' sarflandi.

Respublika bolalar suyak-sil kasalliklari sanatoriysi, Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali, Andijon va Buxoro shaharlaridagi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, Qarshi va Samarqand shaharlarida viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, shuningdek, mamlakatimizning ko'plab tumanlarida tibbiyot birlashmalari rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi. Qishloq vrachlik punktlarini optimallashtirish va zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash ishlari nihoyasiga yetkazildi.

Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida keyingi besh yilda mamlakatimizda har 100 mingta chaqaloqqa nisbatan onalar o'limi 23,1 dan 19 taga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 14,8 tadan 13,9 taga, chaqaloqlar o'limi 11 tadan 10,7 taga kamaydi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga to'liq erishganini alohida ta'kidlashni istardim.

Mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlashning muhim va samarali omili bo'lgan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2015-yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bolalar sporti inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha manzilli dasturni amalga oshirish doirasida umumiy qiymati 225 milliard so'mdan ortiq 35 ta namunaviy sport obyekti, 12 ta suzish havzasi, 174 ta maktab sport zallari foydalanishga topshirildi.

2015-yilda O'zbekiston sportchilari jahon, Osiyo chempionatlari va boshqa xalqaro turnirlarda 860 dan ortiq medalni qo'lga kiritishga erishdilar. Shuning 311 tasi oltin, 274 tasi kumush va 276 tasi bronza medallaridir. Sportchilarimiz, ayniqsa, yengil atletika, badiiy gimnastika, boks, kurash, dzyudo, taekvondo, ot sporti bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirok etishmoqda.

O'tgan yil davomida «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturini to'liq amalga oshirish masalasi ham diqqatimiz markazida bo'ldi. Nuroniy otaxon va onaxonlarimizga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni yanada kuchaytirish maqsadida ushbu dasturni amalga oshirishga vazirlik va idoralar, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlariga tegishli korxona va tashkilotlar, jamoat birlashmalari, birinchi navbatda, «Nuroniy» va «Mahalla» jamg'armalari keng jalb etildi. O'tgan yili 215 mingdan ziyod muhtaram faxriylarimiz bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ehtiyojmand nogironlarga 11 mingdan ortiq yuqori sifatli protez-ortopediya buyumlari va texnik rehabilitatsiya vositalari bepul topshirildi. 70 mingga yaqin keksa avlod vakillari to'liq tibbiy

ko'rikdan o'tkazildi va statsionar hamda sanatoriy-kurort muassasalarida o'z sog'lig'ini tikladi. 100 yoshga to'lgan nuroniylarning pensiyasiga eng kam oylik ish haqi miqdorida ustamalar qo'shib berildi. Bundan tashqari, o'tgan yilning 1-sentabridan boshlab o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksa va nogironlarni har oyda bepul ta'minlash uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyena tovarlarining yangi ro'yxati joriy qilindi.

Bu haqda albatta uzoq gapirish mumkin, lekin, muxtasar qilib aytganda, «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan 2 trillion 246 milliard so'm va 225 million dollardan ziyod mablag' sarflanganining o'zi, o'ylaymanki, bu boradagi ishlarimizning miqyosi va ko'lamidan yaqqol dalolat beradi.

ASOSIY QISM

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir yuridik yoki jismoniy shaxs xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida chet el firmalari bilan savdo sotiq aloqalari o'rnatishi va o'z mablag'laridan tashqari chet el mablag'larini xam moliyaviy xo'jalik faoliyatiga jalb qilishni yoki chet el firmalarining xo'jalik – moliyaviy faoliyatida o'zining ulishi bilan qatnashishi mumkin. Xo'jalik yurituvchi subektlar quydagi yo'nalishlarida xorij kompaniya va firmalar bilan moliyaviy xojalik muomilalarini amalga oshiradi:

- Savdo - sotiq faoliyati – tuzilgan shartnomalarga asosan xorijdagi subektlarga o'zining tayyor maxsulotlari yoki tovarlarni sotadi yoki ulardan tovarlarni sotib oladilar;
- Investitsiya (moliyaviy qo'yilma) faoliyati – kelishilgan xolda chet-el sarmoyalarini o'zining faoliyatiga jalb qiladi yoki o'zining vaqtincha ortiqcha mablag'larini chet el firmalarning faoliyatiga ulish sifatida beradilar.
- Ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish – tuzilgan kontraktlarga asosan chet el firmalarining buyurtmalari boyicha ishlarni bajaradilar va xizmat ko'rsatadilar va o'z navbatida chet el firmalariga buyurtmalar beradilar, ularning bajargan ishlarini qabul qiladilar va xizmatlarini istemol qiladilar;
- Litsenziya, savdo markalari, dasturlar va patentlarni sotish yoki sotib olish va boshqalar;

Subektlarning tashqi iqtisodiy aloqalari davlatning qonun va qarorlari va xalqaro qoidalariga asosan tartibga solib turiladi. Ushbu munosabatlar bizning davlatimizda tegishli prezidentimizning farmoni, qonunlar, vazirlar maxkamasining qarorlari va tegishli vazirliklar tomonidan chiqarilgan (qonundan chetga chiqmagan holda) yo'riqnomalar bilan tartibga solinadi va shularga asosan nazorat qilinadi. O'zbekiston Respublikasida “eksport va import muomilalarini” va “investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Vazirlar maxkamasining ushbu qonunlarga asosan chiqargan qarorlari asos bo'ladi. Bu qonunlar va qarorlarda qatnashayotgan tomonlarning huquq va majburiyatlari, faoliyat turlari va shartlari ko'rsatilgan .

Tartibga solishning tezkorlik usulida tovar xizmatlarni eksport va import qilishga litsenziya berish ularning kvotasi (miqdori, hajmi) tovar nomenklaturasi (turlarini) bojxona tartibini o'rnatish va xisoblashishning valyuta tartibini belgilashdir. Chunki ushbu usullar tizimi dastlabki moliyaviy xujjatlarni tuzishga, eksport va import muomilalari bo'yicha sariflangan xarajatlarga va ushbu muomilalar yuzasidan aniqlangan moliyaviy natijalarga bevosita tasir qiladi.

Subektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish avvalo bojxona tartibi amalga oshiriladi. Bojxona tizimida davlat chegarasidan o'tadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarga qo'llaniladigan tartiblar ko'rsatiladi:

- Bojxona tarifi (olinadigan yig'imglar, to'larlar);
- Tovor va xizmatlarni chegaradan o'tkazish tartibi;
- Kontrabandaga qarshi tadbirlar
- O'tkaziladigan va kiritilgan tavorlar, ishlar va xizmatlarning turlari va miqdori;

Tovar va ishlarning nomenklaturasiga asosan quydagilar tuziladi:

- Dastlabki xujjatlarning shakli va uning mazmuni o'rnatilgan xalqaro tartib va qoidaga asosan o'zgartirilgan holda;
- Bojxona deklaratsiyasi – tegishli tavorlar, ish va xizmatlarning nomlari, miqdori va qiymati ko'rsatilgan xolda;
- Xalqaro yuk xatlarning o'ziga xos xususiyatlari, maxsus belgilar qo'yilgan xolda.

Ushbu faoliyatda asosiy bosqichlaridan bittasi tegishli kontraktlarni tuzish, miqdor, baxo va tavorlarni yetkazib berish tartibi va grafigi xisoblanadi. Chunki ushbu talablarning bajarilishi ustidan tezkor va qattiq nazorat o'rnatiladi. Bundan tashqari hisoblashish jarayoni tashqi iqtisodiy faoliyatda asosiy o'rinlardan birini egallab, bu munosabatlar "Valyuta tartiblari va valyuta nazorati to'g'risida"gi qonunga asosan amalga oshiriladi. Valyuta tartiblariga rioya qilish Markaziy bank tomonidan nazorat qilinib, ushbu bankka quydagi vakolatlar yuklangan:

- Xorij valyutalari muomilalarining tartibi va faoliyat jarayonlari;
- Resident va norezidentlar tomonidan valyuta muomilalarini amalga oshirish qoidalari;
- Valyuta muomilalarini xisobga olish, xisoblab xujjatlashtirish va statistikaning umumiy taetibini o'rnatish.

Xalqaro tartiblar va "tavorlarning xalqaro oldi-sotdi to'g'risidagi shartnoma" BMT konvensiyasi A/CONE. 97/18. Annex 1 va Inkotermis xujjatlariga asoslanadi.

Ushbu xujjatlarda:

- Iqtisodiy aloqalarga qulay shart-sharoitlar yaratish, aloqa o'rnatish, shartnomalar tuzish va tegishli tartib va qoidalarni o'rganish uchun ma'lumotlar va axborotlar bilan taminlash;
- Tavorlarni olish va sotishdagi to'siqlardan o'tish shartnomalar tuzish, tavorlarning turlari, miqdori va grafiglarini belgilash va yetkazib berish uchun sharoitlar yaratish;
- Tavorlarni sotib olish va sotish bo'yicha kamsitishlarni tugatish, tomonlarning manfaatlarini ko'zlagan xolda xo'jalik muomilalarini amalga oshirish;

- Shartnomalarni amalga oshirishga sarflanadigan vaqt va xarajatlarni qisqartirish maqsadida ko'rsatilgan shakllarda xarajatlarni xisobga olishda tasdiqlangan "Nizom" qoidalariga amal qilinadi;

Ushbu "Xarajatlarning tarkibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq eksport maxsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha sarflangan asosiy xarajatlarga quydagi xarajatlar kiradi:

- Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning mexnat haqqi
- Mexnat haqqi jamg'armasidan ijtimoiy muxofaza jamg'armasiga ajratma
- Asosiy ishlab chiqarishga sarflangan material va xom-ashyo qiymati

Kelishilgan buyurtma va tuzilgan kontrakga asosan xorijda pudrat usulida qurilishni amalga oshirayotganda qurilish xarajatlariga quydagilar kiradi:

- Qurilish materiallarining qiymati;
- O'rnatiladigan uskunarlar qiymati va o'rnatish xarajatlari;
- Uskuna va materiallarni olib borish xarajatlari
- Mutaxasislarni tayyorlash xarajatlari

Sarflangan xarajatlarni va tayyor maxsulotlarni xisobga olayotganda 2020-"Eksport maxsulotlarini ishlab chiqarish" va 2830-"Tayyor eksport maxsulotlari" schetlari qo'llaniladi. Kelishilgan kontrakt va buyurtmaga asosan eksport uchun maxsulot ishlab chiqarayotganda uning uchun sarflangan xarajatlarni hisobga olish uchun 2020 schyo'tini ochish maqsadga muvofiq va ushbu maxsulotlar tayyor xolga keltirilgan va tegishli nazoratchilarning ko'rigidan o'tgandan keyin davr jarayonida reja tannarxida 2830-"Eksport maxsulotlari" scho'tiga o'tkazish maqul – Debet 2830 va Kredit 2020. Xisobot davrining oxirida ushbu maxsulotlarning haqiqiy tannarxi kalkulyatsiya qilinib farq summasi tegishli 2020 schotining kreditidan 2830 schotining debetida qayd qilinadi, tejalgan summa (-) va ortiqcha sarf esa (+) belgisida.

2830 – "Eksport qilingan tayyor maxsulotlar";

2840 – "Eksport qilingan tovarlar";

Debet

Kredit

2810 – Tayyor maxsulotlarning eksport qilinishi	9110 – Eksport qilingan maxsulotlarning tannarxi
---	--

2910 – Tovarlarining eksport qilinishi	9120 – Eksport qilingan tovarlarning tannarxi
2310 – yordamchi ishlab chiqarishda bajarilgan ishlarning eksport qilinishi	9130 - Eksport qilingan xizmatlarning tannarxi

Tayyor maxsulotlarni eksport qilayotganda quydagi tijorat sarflari xosil bo'ladi:

- Tovarlarini jo'natishga tayyorlash, ishlarga joylash, sifat va sonini tekshirish;
- Tovarlarini transportga yuklash;
- Tovarlarini transportda istemolchilarga jo'natish;
- Tovarlarini yo'lda muxofaza qilish;
- Tovarlarini yo'lda tushirish, saqlash va yuklash;
- Transport ekspiditsiya tashkilotlariga to'lovlar;
- Bojxona to'lovlari, bojxona tariflari va yig'implari;
- Bank xizmati to'lovlari
- Soliq bitimlar va tovorlarning kamomadi va yo'qatishlar (agar sud davoni tan olmasa)

Ushbu xarajatlarni tasdiqlovchi xujjatlar subektdagi shunga o'xshash mamlakat ichida sodir bo'lgan muomalalar bo'yicha sariflangan tijorat sariflarini tasdiqlovchi xujjatlarga o'xshaydi lekin qo'shimcha quyidachi hujjatlar to'lg'aziladi:

- Bojxona deklaratsiyasi;
- Yo'ldagi tovorlarni muxofaza qilish shartnomasi.

Muomalar xarajatlariga quydagilar kiradi:

- Xodimlarga hisoblanadigan mehnat haqi va mukofatlar;
- Nafaqa foizi ijtimoiy tibbiy muhofaza va byujetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar;
- Xizmat safari sariflari ;
- Xo'jalik va kantselyariya sariflari
- Transpo'rt dan foydalanish sarfi;
- Imopat va insholarning ijara sariflari;
- Qo'riqlash sariflari va hakazo;
- Savdo muomalasi sariflari (tavorlardan namunalar sotib olish vakillarni qabul qilish vakolatxonalar sarfi va hakozo)

Ushbu xarajatlar ikki guruxga bo'linib xisobga olindi:

- Savdo muomila xarajatlari
- Mamuriy boshqaruv xarajatlari

Ushbu xarajatlar 9410-“maxsulot (ish xizmat)larni sotish bilan bog’liq sariflar” scho’tida xisobga olib boriladi va ushbu scho’tlar guruxida quyidagi scho’tlar ochilishi mumkun:

- 9411-“saqlash va tashish sariflari”
- 9412-“reklama va sotishga yordam berish sariflari”
- 9413-“o’rash navlarga ajratish va idish sariflari”
- 9414-“mexnatga xaq to’lash sariflari”
- 9415-“mexnat xaqi jamgarmasidan ajratmalar”
- 9419-“boshqa savdo sariflari”

Lekin ekisport va import muomalalri natijasida sariflangan xarajatlarni ayrim xisobga olish va tezkor nazorat o’rnatish ushbu faoliyat bo’yicha aniqlash maqsadida quyidagi qo’shimcha scho’tlarni yuritish lozim:

- 9416-“tavorlarni ekisport qilish boyicha savdo sariflari “
- 9417-“tavorlarni import qilish boyicha savdo sariflari “

Savdo xarajatlari tuzilgan har bir kantrakt bo’yicha ayrim olgan holda xisobga olib borilishi kerak.

Savdo va muomala sariflari xojalik yurutuvchi subektlarning yakuniy moliyaviy natijalariga olib boriladi 9910 “Yakuniy moliyaviy natijalar “scho’tining debetida va 9410” maxsulot (ish xizmat)larini sotish bilan bog’liq sarflar”scho’tining kreditida qayt qilinadi.

Ekspo’rt –tavorlarining davlat chegarasida o’tkazilishidir.

Tavorlarning ekisportini nazorat qilish ish va xizmatlar ekispo’rtini nazorat qilishdan oson chunki u mulk va aniq ko’rinishga egadir.

Lekin ish va xizmatlarning ekispo’rtini nazorat qilganda quydagilarga asoslanish kerak.

- Xorijdagi shaxst bilan tuzilgan kontirakit ;
- Bajarilgan ish yoki ko’rsatilgan xizmatning xaqiqiy joyi;
- Xalqaro yuklarni tashish xujjatlari .

Chunki bu chegaralanish volyuta muomalarini tartibga solish ,moliyaviy natijalarni aniqlash va soliqga tortish jarayonini to’g’ri amalga oshirishda asos bo’ladi.

Tavor ,ish va xizmatlarni ekspo’rt qiladigan subektlar uch guruxga bo’linadi.

- Eksport maxsulotlarini ishlab chiqaruvchilar;
- Eksport bilan shug'ulanadigan savdo firmalari ;
- Dallol firmalar –kamissiyon yigim evaziga ishlab chiqaruvchi yoki savdo firmalarining tayyor mahsulotlari yoki tavorlarini sotib beradilar yoki sotuvchilarning topshrigini bajaradilar.

Savdo firmalari tavorlarni eksport qilish uchun ishlab chiqargan subektlardan sotib olganda dastlabgi hujjatlarga asosam schotlarda quyidagicha qayd qilinadi :

Dt 2910 –“ombordagi tovarlar” yoki 2960-“eksport qilinadigan tovarlar”.

Dt 6410 – “Budjetga to'lovlar yuzasidan qarzlar” schoti (xisoblangan qo'shilgan qiymat solig'I summasiga)

Kt 6010 – “mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar”.

Eksport qilingan tovarlarni hisobga olish uchun davlat chegarasidan o'tgan yoki xorij istemolchisiga berilganligini tasdiqlovchi dastlabki xujjatlar asos bo'ladi.

Ushbu xujjatlarga quyidagi xujjatlar kiradi:

- Xususiyatlari, pattalari, konosament, va yukxatlarning nusxalari ilova qilingan mol yetkazib beruvchi firmaning schotiga to'lov roziligi;
- Po'chtaning yukni jo'natish uchun qabul qilinganligini tasdiqlovchi pattasi;
- Qabul qilish dalolatnomasi;
- Jo'natish xujjatlariga asosan yozilgan to'lov schotlari;
- Tijorat dalolatnomasi
- Ekspeditor va konsignatorlarning qabul qilish dalolatnomasi.

Dunyoda tovarlarni yetkazib berishning xar xil tartiblari mavjud bo'lib bu tartiblar “Inkoterms”da umumlashtirilgan.

Masalan: “Franko – tashuvchi” (FKA) – sotuvchi o'z tovarini oluvchi yoki uning vakiliga topshirgan vaqtdan boshlab javobgarlikdan soqit bo'ladi.

“Franko – chegara” (DAF) – sotuvchi tovarini chegaradagi ko'rsatilgan manzilga yetkazib beradi.

Ushbu voqealar sodir bo'lgandan keyin tovarlar 9110 – “Sotilgan maxsulotning tannarxi” schotida qayd qilinadi va 2910 – “Ombordagi tovarlar” yoki 2960 – “Eksport qilinadigan tovarlar” schotining kreditidan 9110 – “Sotilgan maxsulotning tannarxi” schotining debetiga o'tkaziladi.

Jo'natilgan tovarlarning xarakati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida va eksportning xususiyatlari va qoidalaridan kelib chiqqan xolda "Eksportga jo'natilgan tovarlar" nomli 2960 schotini ochish va unda quydagi qo'shimcha schotlarni ochish maqsadga muvofiqdir:

- 2961 "Eksportga jo'natilgan yo'ldagi tovarlar" – istemolchilarga jo'natilgan lekin mulk huquqi berilmagan;
- 2961 "Jo'natilgan va fakturalangan eksport tovarlari" – xorijdagi istemolchiga jo'natilgan unga mulk huquqi berilgan tovarlar uchun.

Agarda tovarlar tegishli tuzilgan kontraktga asosan eksport qilinsayu, lekin mulkchilik huquqi berilmasa:

Dt 2961- "Eksportga jo'natilgan yo'ldagi tovarlar" schotiga;

Kt 2960 - "Eksportga jo'natilgan tovarlar" schotidan o'tkaziladi.

Agarda shu vaqtning o'zida xaridorga mulkchilik huquqi berilsa;

Dt 9120 – "Sotilgan tovarlarning tannarxi" schotiga;

Kt 2961 - "Jo'natilgan va fakturalangan eksport tovarlar" schotidan o'tkaziladi va shu bilan bir vaqtda ularning kontraktga ko'rsatilgan summasi;

Dt 4010 – "Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan scho'tlar";

Kt 9020 – "Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar" schotlarida qayd qilinadi.

Jonatilgan tovarlar 2960 (2961) schotida xorij valyutalarining so'mga nisbatan kursdan qat'iy nazar so'mda aks ettirilib bo'riladi.

Eksport maxsulotlarini sotish uchun 9010 – "Tayyor maxsulotni sotishdan olingan daromad" schotida tegishli 9011 – "Eksport maxsulotni sotishdan olingan daromad" schotini ochish maqsadga muvofiqdir. Ushbu schotda eksport muomilalari quydagi dastlabki xujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

- Maxsulot yoki tovarlar uchun – kontrakt, yukxati jo'natish, berish qaydnomasi va boshqa jo'natish xujjatlari
- Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmat uchun – bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatning dalolatnomasi va chegaradan o'tkanligini tasdiqlovchi xujjatlar;
- Truboprovod tovarlari (neft,gaz,suv va boshqalar) uchun xisoblovchi uskunalarning malimotlarini ko'rsatadigan dalolatnomalar.

Jaxon amaliyotida tayor maxsulot yoki tovarlarni sotilgan deb etirof qilishning ikkita usuli mavjud:

- Maxsulot va tovarlarni xaridorga jo'natgan yoki ular yuzasidan to'lov hujjatlarni tegishli bankka bergan vaqtdan boshlab ular sotilgan deb tan olinadi;
- Tayyor maxsulotlar yoki tovarlarni xaridorlarga jo'natgandan keyin ularning shartnomada ko'rsatilgan qiymati pul mablag'lari schotiga kirim qilingan vaqtdagina sotilgan deb tan olinadi.

Maxsulot qiymati istemolchi tomonidan to'langanda (xisoblashish schotiga kirim qilinganda) sotilgan deb tan olinganda schotlarda quydagicha qayd qilinadi:

- Mablag' xorij valyutasiga kelib tushganda importchi ushbu maxsulotning qiymatini to'lashga rozilik bersa:

Dt 4010 – “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar”;

Kt 9020 – “Tayyor maxsulotlarni sotishdan olingan daromadlar” schoti;

Dt 5210 – “Mamlakat ichidagi xorij valyutasidagi mablag'lar” yoki 5220 – “Xorijdagi valyuta schotidagi mablag'lar” schoti;

Kt 4010 – “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar” schoti.

Sotilgan maxsulotning qiymati xisobdan chiqarilganda:

Dt 9110 – “Sotilgan maxsulotning tannarxi”va

Kt 2861 – “Eksportga jo'natilgan yo'ldagi tayyor maxsulotlar” schoti.

Agarda eksport maxsulot jo'natilgan vaqtdan sotilgan deb qabul qilinsa va mulkiy huquq xorij iste'molchiga berilsa, tovar iste'molchiga jo'natilib schot faktura qo'yilsa kontraktda ko'rsatilgan summaga:

Dt 4010 - “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar” schoti

Kt 9010 – “Tayyor maxsulotni sotishdan olingan daromad” schoti va shu vaqtda sotilgan tayyor maxsulotlarning tannarxiga :

Dt 9110 – “Sotilgan maxsulotning tannarxi” schoti

Kt 2810 – “Eksportga tayyorlangan maxsulotlar” schoti.

Ushbu muomila bo'yicha istemolchilar qarzini to'lasalar

Dt 5210 – “Mamlakat ichidagi” yoki 5220 – “Xorijdagi valyuta schoti”

Kt 4010 - “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar” da qayd qilinadi yoki bajarilgan ish va korsatilgan xizmatlar bo’yicha:

Dt 9130 – “sotilgan ish va xizmatlarning tannarxi” schoti

Kt 2020 – “Eksport qilinadigan ishlar” schoti.

Eksport maxsulotini realizatsiya qilish natijasida moliyaviy natijaning aniqlash uchun jami sarflar va daromadlar yakuniy moliyaviy natijalar schotida tegishli yo’llari bo’yicha yig’iladi:

1. Dt 9010 – “Tayyor maxsulotni sotishdan olingan daromad” schoti

Kt 9910 – “Yakuniy moliyaviy natijalar” schoti

2. 9910 – “Yakuniy moliyaviy natijalar” schoti

9110 – “Sotilgan maxsulotning tannarxi” schoti va

3. Dt 9910 – “Yakuniy moliyaviy natijalar” schoti

Kt 9410 – “Maxsulotlarni sotish bilan bo’g’liq sarflar” schotlari.

Xorij firmalarining tovarlarni, ish va xizmatlarni sotib olish bilan bo’g’liq qarzlari

4010 - “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar” schotida chet el valyutasi va so’mda ko’rsatiladi va xar oyda aniqlangan valyuta kursining farqi agarda valyuta kursi so’mga nisbatan pasaysa subektning foydasiga

Dt 5210 – “Mamlakat ichidagi valyuta schoti”

Kt 9540 – “So’m kursidagi ijobiy farq bo’yicha daromadlar” schoti olingan foyda summasiga agarda valyuta kursi so’mga nisbatan oshsa subektning zarariga olib boeiladi:

Dt 9630 – “So’m kursidagi salbiy farq bo’yicha zararlar” schoti

Kt 5210 – “Mamlakat ichidagi valyuta schoti” schotlarida qayd qilinadi.

Xorij firmalari to’lagan pul mablag’lari subektning tegishli schotga kirim qilinsa:

Dt 5210 – “Mamlakat ichidagi valyuta schoti” yoki 5220 – “Xorij valyuta schoti”

Kt 4010 - “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar” da valyuta va so’mda qayd qilinadi.

Mabodo xorij firmasidan jo’natiladigan maxsulot uchun oldindan bo’nak olingan bo’lsa u vaqtda bo’nak summasi schotlarda quydagicha aks ettiriladi:

Dt 5210 – “Mamlakat ichidagi valyuta schoti” yoki 5220 – “Xorij valyuta schoti”

Kt 6310 – “Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo’naklar” schoti istemolchi olgan tayyor maxsulotning yoki tovarning qiymatini to’laganda ilgari olingan bo’nak summasi to’liq xisoblashishda inobatga olinadi:

Dt 6310 – “Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo’naklar”

Kt 4010 - “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar” va qolgan summalarnigina istemolchilar to’laydilar:

Dt 5210 – “Mamlakat ichidagi valyuta schoti”

Kt 4010 - “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar” da qayd qilinadi.

Mabodo olingan bonak eksport maxsulotining to’liq qiymatini tashkil qilsa. Yani kontraktga asosan qiymatini oldindan to’lasa maxsulot sotilganda schotlarda quydagicha aks ettiriladi:

Dt 6310 – “Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo’naklar”

Kt 9010 – “Tayyor maxsulotni sotishdan olingan daromad” schotida valyuta va so’mda qayd qilinadi. Yani 4010 schotini qo’llash zarurati qolmaydi.

Ayrim xollarda, ayniqsa keyingi vaqtlarda maxsulot, ish va xizmatlarni eksport qilish jarayonida vositachi firmalar aktiv ishtirok qiladilar. Bu dalol firmalar sotuvchi va iste’molchilarni bir-biri bilan bog’langani uchun mukofot yani haq oladilar.

Bu ishni amalga oshirish uchun avvalo ishlab chiqaruvchi korxona bilan dalol o’rtasida kontrakt tuzilib dalol istemolchini topib tovar egasi(komitent) ning tovarini o’z nomidan sotadi va buning uchun tovar egasidan komission yig’im (rag’batlatntirish) xizmat haqqini oladi.

Kommsiya shartnomasiga muvofiq xorij firmasi bilan shartnomani vositachi tuzadi va u tovarlarni iste’molchiga etkazib berish bilan bog’liq, ishlarning hammasini bajaradi:

- bojxona yigimlari va to’lovlarini to’laydi;
- tovarlarni olib borib berish - transport xarajatlari- ni va tovarlarni saqlash, yuklash va tushirish xarajatlarini ham to’laydi.

Chunki bu sarflarni keyinchalik tovar egasi - komitent vositachiga (komissionerga) qoplaydi.

Sotib berish uchun olingan tovarlarni vositachi balansdan tashkari 004-"Komissiyaga (sotib berishga) kabul kilingan tovarlar" schyotida qayd qiladi, komitent esa 2861-"eksportga junatilgan yuldagi tayyor maxsulotlar" schyotida hisobga oladi. Vositachi tovarni xorijdagi iste’molchiga topshirgandan keyin 004-"Komissiyaga (sotib berishga) kabul kilingan tovarlar" schyotidan hisobdan chikaradi.

Sotilgan tovarlar bo'yicha olingan daromadlar vositachining valyuta schyotiga kirim qilinadi va shu kuni komitentga xabar bergandan so'ng ushbu summani komitent o'zining tegishli schyotlarida (5210 yoki 5220) aks ettiradi.

Agarda tovarlarni sotish bilan bog'liq, xarajatlar komitent tomonidan qoplanga ushbu muomalalar kuyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

Dt 6830-"Royalti va gonorarlarni buyicha qarzlarni" schyoti

Kt 5110-"Xisoblash schyoti" yoki 5210-"Mamlakat ichidagi valyuta schyoti"

va ushbu tolangan summalarni quyidagi schyotlarda qayd qiladi:

Dt 9410-"Maxsulot (ish, xizmat)larni sotish bilan bog'liq, sarflar"

KT 6830-"ROYALTI va gonorarlarni buyicha qarzlarni" schyoti.

Xorij firmasidan olgan tovarlari uchun xorij valyutasi kelib tushsa vositachi kuyidagicha qayd etiladi:

Dt 5210 yoki 5220-"Mamlakat ichidagi va xorijdagi valyuta schyotlari"

Kt 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar".

Vositachidan sarflangan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilgan schyotni olgandan keyin komitent unga qarzdor bo'ladi va eksport kontrakti bo'yicha sotishdan hisoblangan daromadni qayd qiladi:

Dt 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

Kt 9010-"Maxsulotni sotishdan olingan daromadlar" schyoti;

Dt 9110-"Sotilgan maxsulotlarning tannarxi";

Kt 2871-"Eksportga jo'natilgan maxsulotlar" schyotlari.

Kiymati olinganda esa:

Dt 5210 yoki 5220-"Mamlakat ichidagi va xorijdagi valyuta schyotlari";

Kt 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar".

Xujalik yurituvchi sub'ektlar o'z faoliyati jarayonida maxsulotlarni eksport qilishdan tashqari o'ziga chetdan tovarlar, uskuna va materiallar ham olishi mumkin. Bu jarayonlar kuyidagi guruhlariga bo'linadi:

- ishlab chiqarish iste'moli uchun xom-ashyo va materiallar olish;
- o'z korxonasi uchun mashina va uskunalarni olish;
- o'zining xaridorlari va buyurtmachilariga sotish uchun chetdan tovarlar olish.

Ushbu muomalalar amalga oshirilayotganda hisobning asosiy vazifalaridan biri olynayotgan qiymatliklarning qiymatini to'liq va to'g'ri hisoblash va joriy hisobda aks ettirishdir. Shuning uchun 1510-"Materiallarni tayyorlash va sotib olish" sintetik schyotida 1520-"Importga olingan tovar-moddiy zaxiralari" schyotini ochib unda yuqorida keltirilgan tovar-moddiy kiymatliklari

bo'yicha sarflangan hamma xarajatlarni yigib borish va ushbu tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini aniklash zarur.

Ushbu 1520-"Importga olingan tovar-moddiy zaxiralari" schyotining debet tomonida import tovarlari, xom-ashyo va materiallar va mashina va uskunarlar buyicha sarflangan hamma xarajatlar va ularning sotib olish baxolari ko'rsatilishi Lozim. Keyinchalik ushbu tovar-moddiy zaxiralarini tegishli 2900, 1000, 0700 va 0800 schyotlarga haqiqiy-to'liq tannarxda o'tkaziladi. Chunki yo'riqnomaga muvofik, import kilingan tovar-moddiy zaxiralarining tannarxiga quyidagilar qo'shiladi:

- tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish bahosi;
- hisoblangan aksiz summasi;
- bojxona to'lovi va yigimlari;
- tovar-moddiy zaxiralarni olib kelish sarflari.

Agarda xorijdan moddiy boylik sotib olinsa:

Dt 1510-"Tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va sotib olish" schyoti;

Kt 6010-"Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarz" schyoti.

Xisoblangan bojxona to'lovlari va yigimlari summasiga:

Dt 1510-"Tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va sotib olish" schyoti;

Kt 6010-"Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisoblashish" schyoti.

Agarda mol etkazib beruvchi iste'molchining omborigacha etkazib bersa hisoblangan aksiz soligi summasiga:

Dt 1510-"Tovar-moddiy zaxiralarini tayyorlash va sotib olish" schyoti

Kt 6410-"Byudjetga to'lovlar yuzasidan qarzlar" schyoti.

Agarda ushbu soliqni iste'molchi to'lasa to'langan QQS va aksiz soliqlari quyidagicha aks ettiriladi:

Dt 6410-"Byudjetga tulovlar yuzasidan karzlar" schyoti va

Kt 5110-"Xisoblashish schyoti".

Keyinchalik tovar-moddiy zaxiralarining to'liq tannarxi aniqlanib ushbu 1510 schyotdan tegishli TMZ hisobga oluvchi schyotlarga o'tkaziladi:

Dt 1000, 1100, 1200, 2900 (TMZ turlari bo'yicha)

Kt 1510-"Tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va sotib olish" schyoti.

Olingan tovar va moddiy qiymatliklar sub'ektning mulki bo'lgan sanadan uning balansiga kirim qilinadi va hisoblashish amalga oshirilgan sanada xorij valyutasi bilan sum kursi belgilanadi.

Sotish uchun olingan import tovarlari ularning turlari, guruhi buyicha ayrim holda 2900 schyotlar guruxidagi tegishli schyotlarda hisobga olib borish maksadga muvofiq. Chunki to-

varlarning turlari, olish vaqti va olib kelish tartibi bilan ularning aksiz solig'i, QQS, bojxona to'lovlari va transport xarajatlari har xil bo'ladi.

Xarajatlarni hisobga olishda quyidagi tartiblar va xujjatlar tasdiqlangan:

- dengizda tashishda - paroxod, konosament;
- temir yo'l bilan tashishda - vagon, xalqaro temir yo'l yukxati;
- avtotrasnportda - avtotransport, xalqaro avtotransport yukxati (TIR);
- xavo transportida - xavo layneri, xalqaro xavo transporti yukxati.

Korxona va firmalar tovarlarni ulgurji savdoda sotib olish baxosida va chakana savdo va umumiy ovkatlanishda sotish baxosida hisobga olishi mumkin.

Chakana savdo korxonalarida va umumiy ovqatlanish korxonalarida tovarlarni sotish baxosida hisobga olganliklari uchun tovarlarni sotish baxosiga etkazish maqsadida QQS, aksiz soligi, bojxona to'lovlari va olib kelish sarflarini tovarlarning sotib olish qiymatiga qo'shadilar.

Tayyorlov, ta'minot-sotish, ulgurji va boshqa sub'ektlar import tovarlarni haqiqiy tannarxda hisobga olib boradilar. Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarni sotib olish baxosida hisobga oladilar. Lekin QQS, aksiz soligi va bojxona to'lovlarini- ayrim hisobga olib boradilar. Xaridor va buyurtmachilar bilan kelishilgan baxolar hisobidan davlat byudjetiga soliqlar, mol etkazib beruvchilarga to'lanadigan kontraktda ko'rsatilgan summa, bojxona to'lovlari, transport sarflari va muomala sarflari qoplanadi, shu bilan birga foyda ham olinishi kerak.

Tuzilgan kontraktda asosan xorij firmalaridan tovar olindi.

Tovarning kelishilgan kontrakt baxosi:

ulgurji va chakana savdo korxonalarida:

Dt 2900-"Tovarlarini hisobga oluvchi schyotlar" - tovarlarning guruxi va turlari buyicha

Kt 6010-"Mol etkabi beruvchi va buyurtmachilarga bo'lgan qarz" schyoti.

Bojxona to'lovlari va yigimi summasiga: ulgurji va chakana savdo korxonalarida: Dt 2900-"Tovarlarini hisobga oluvchi schyotlar" - tovarlarning guruxi va turlari buyicha

Kt 6890-"Xar xil hisoblangan majburiyatlar" schyoti. Akstiz soliqlari hisoblanganda (agarda xaridor soliqni to'lasa):

ulgurji va chakana savdo tashkilotlarida Dt 4010-"Iste'molchi va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" - iste'molchilarning guruxi va turlari buyicha Kt 6410-"Byudjetga to'lovlar yuzasidan qarzlar" schyoti. Ko'shilgan qiymat solig'i hisoblanganda (agarda xaridor soliqni to'lasa):

ulgurji va chakana savdo korxonalarida Dt 4010-"Iste'molchi va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"- iste'molchilarning guruxi va turlari bo'yicha Kt 6410-"Byudjetga to'lovlar yuzasidan qarzlar" schyoti. Hisoblangan soliqlar summasi to'langanda: Dt 6410-"Byudjetga to'lovlar yuzasidan qarzlar" schyoti Kt 5110-"Xisoblashish schyoti" Bojxona

to'lovlari va yigimlari to'langanda: Dt 6890-"Xar xil hisoblangan majburiyatlar" schyoti Kt 5110-"Xisoblashish schyoti"

Sotish bilan bog'liq; xarajatlarni tegishli hujjatlarga asosan aks ettirish:

Dt 9410-"Muomala xarajatlari" sarflarning turlariga qarab- 9411-9419 schyotlari va Kt savdo sarflarining turlari- 0200, 6710, 6520, 2310, 9450 va hokazo schyotlari.

Tovarlarni sotish natijasida hisoblangan daromadlar summasiga:

ulgurji va chakana savdo korxonalarida Dt 4010-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" Kt 9020-"Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar" schyoti.

Sotilgan tovarlarning qiymati hisobdan chiqarilganda: tovarlarning xaqiqiy tannarxida ulgurji va chakana savdoda Dt 9120-"Sotilgan tovarlarning tannarxi" schyoti

Kt 2910-"Ombordagi tovarlar" schyoti.

Tovarlarni sotishdan olingan daromad summasiga. Ulgurji va chakana savdo korxonalarida: Dt 5110-"Xisoblashish schyoti"

Kt 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" hisobdan chiqarilgan muomala xarajatlariga. Ikkala savdo tashkilotlari ham Dt 9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schyoti; Kt 9410-"Muomala sarflari" sarflarning turlari bo'yicha. Ushbu muomalalarning yakuniga asosan moliyaviy natijalarni aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi:

Xisobdan chisqarilgan tovarlarning tannarxi yakuniy moliyaviy natijalarga olib boriladi

Dt 9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schyoti Kt 9120-"Sotilgan tovarlarning tannarxi" schyoti Dt 9020-"Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar" schyoti Kt 9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schyoti. Demak, 9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schyotining debet tomonida - sarflarda sotilgan tovarlarning tannarxi va muomala xarajatlari aks ettiriladi, shu bilan bir vaqtda ushbu 9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schyotining kredit tomonida maxsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan daromadlar qayd kilinadi va ushbu 9910 schyotning debet va kredit tomonlar taqqoslanib yakuniy moliyaviy natija aniqlanadi:

- agarda sotilgan tovarlarning tannarxi va muomala xarajatlari olingan daromad summasidan kam bo'lsa foyda olinadi.

- agarda sotilgan tovarlarning tannarxi va muomala xarajatlarining yigindisi olingan daromad summasidan kup bo'lsa zarar kuruladi.

Bozor iktisodiyoti sharoitida import tovarlari barter (tovarlarni ayirboshlash) usulida ham olinishi mumkin. Bu usul qo'llanilayotganda tuzilgan kontraktga asosan xorijdagi firmalardan tovarlar, xom-ashyo va materiallar, uskunalar yoki boshqa qiymatliklar olinib, baxolari kelishilgan holda ularga boshqa tovarlar, xom-ashyo va materiallar yoki boshqa qiymatliklar beriladi. Masalan: paxta tolasi junatilib tayyor gazlama yoki paxta terish kombaynlari junatilib po'lat yoki cho'yan olinishi mumkin. Bu usul kullanilayotganda ikkala tomon ham iste'molchi

va sotuvchi hisoblanib undagi eksport va import kontraktining asosiy sharti baxolarni kelishib olish va dunyo bozorini yaxshi va chuqur o'rganishi talab qilinadi va xorij valyutasi bilan sum kursining darajasiga e'tibor berish kerak.

Bu faoliyat tegishli "Nizom"lar, Vazirlar Maxkamasining qarorlari va Moliya vazirligi bilan Davlat soliq qo'mitasining ko'rsatmalariga asosan tartibga solib turiladi.

Xujalik yurituvchi sub'ektlar barter ayirboshlash muomalalarini amalga oshirayotganda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- barter maxsulotlari, ishlar va xizmatlarning kirim summasini solikka tortayotganda shu oyda ushbu maxsulot, ish va xizmatlarning baxosini bozor baxosida (xaqiqiy tannarxdan arzon bo'lishi mumkin emas) hisobga olishi zarur;

- xujalik yurituvchi sub'ektlarning mulkini hisobga olish nizomi va tegishli standartlarga asoslangan xolda qiymatliklari xorij valyutasida aks ettirilgan barter muomalasida ushbu muomala sodir bo'lgan kundagi xorij valyutasi bilan so'm kursini to'g'ri aniqlab qiymatini soliqqa tortishi lozim.

Barterga olingan tovarlar sub'ektning mulkiga o'tgandan keyin uning turlariga qarab dastlabki hujjatlarga asosan schyotlarda quyidagicha qayd qilinadi:

Dt 0700-"urnatiladigan uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar";

Dt 0800-"Kapital kuyilmalarni hisobga oluvchi schyotlar";

Dt 1000-"Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar";

Dt 1100-"O'stirishga va boquvga qo'yilgan hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar";

Dt 1200-"Arzon baxoli va tez eskiruvchan buyumlarni hisobga oluvchi schyotlar";

Dt 2900-"Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar";

Dt 9410-"Sotish xarajatlari" va hokazo schyotlar va

Kt 6010-"Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzni hisobga oluvchi schyotlar" va 7010-"Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar", 6020 va 7020- "Berilgan vasiqalar" schyotlari.

Agarda maxsulot bo'yicha karzlar to'langanda realizastiya qilingan deb hisoblansa eksport qilingan xorijga sotilgan tovarlar haqiqatdan iste'molchiga jo'natilgan bo'lsa sotuvchidan mulk HQUQI xorijdagi iste'molchiga o'tgan vaqtidan boshlab ushbu tovarlar, ishlar va xizmatlar sotilgan deb hisoblanadi va schyotlarda quyidagicha qayd kilinadi:

- barter natijasida junatilgan tovarlarning tannarxi yoki kelishilgan baxosi hisobdan chiqariladi:

Dt 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

Kt 29Yu-"Ombordagi tovarlar" schyoti.

- junatilgan tovarlar qiymatiga xorijdagi iste'molchiga bo'lgan qarz kamayadi:

Dt 6010-"Xorijdagi iete'molchilarga bulgan qarz";

Kt 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar".

Agarda tovar jo'natilgandan boshlab hisobda sotilgan deb qayd qilinsa u vaqtda mulk egachiligi xorij korxonasiga o'tishdan qat'iy nazar ushbu tovarlar kontraktga asosan junatilgandan keyin uning qiymati schyotlarda quyidagicha qayd qilinadi:

- jo'natilgan tovar va ishning kontrakt qiymatiga yoki tannarxiga:

Dt 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

Kt 29Yu-"Ombordagi tovarlar" schyoti.

- xorij korxonasidan barter usulida olingan tovar qiymatiga:

Dt 6010-"Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarz" schyoti;

Kt 4010-"Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar".

Xozirgi sharoitda ko'pchilik savdo firmalari import tovarlarini vositachilik usulida komissiya yig'imi (gonorar) olib sotadilar.

Komissiya shartnomasiga muvofik, komissioner (dallol) uz nomidan komitent (tovar egasi)ning tovarini sotib berish majburiyatini oladi. Sotilgan tovarlar bo'yicha tushumlar komitent schyotiga o'tkaziladi va kontraktida kelishilgan mikkorda tovar sotgan firma komitentdan xizmat haqi (gonorar) oladi.

Sotishga olingan import tovarlar savdo firmasining mulki hisoblanmaydi, va 004-"Komissiyaga olingan tovarlar" schyotida bojxonadan olingan kundagi xorij valyutasiga nisbatan so'm kursida hisobga olib boriladi. Sotilgan tovarlarning summasi va xorij korxonasining daromadini aniqlash uchun tovarlarning turlari buyicha analitik xisob yuritiladi.

Eksport va import kontraktiga muvofik, ko'p xollarda tovarlarning sotish xarajatlari:

- bojxonadan o'tayotganda to'lanadigan ko'shilgan qiymat va aksiz soliqlari;
- bojxona to'lovlari va yigimlari;
- tovarlarning transport xarajatlari (yuklash, tashish va tushirish);
- omborxonalarda saqlash xarajatlari;
- tovarlarning reklama xarajatlari;
- muomala xarajatlari va hokazolardan tashkil topadi.

Ushbu xarajatlar tovarning egasi - komitent tomonidan koplanadi, ya'ni ushbu sarflar komissiyaga oluvchi (dallol) tomonidan amalga oshirilib, tovarlarni sotishdan tushgan mablaglar hisobiga qoplanadi va olingan daromaddan komissionerga to'lanadigan haq; - gonorar summasi chegirilib qolgan qismi tovar egasiga to'lanadi.

Komissiya shartnomalari muomalalarini hisobga olish uchun 6890-"Kreditorlarga to'lanadigan boshqa majburiyatlar", 9020-"Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar" va 9410- "Muomala sarflari" schyotlari qo'llaniladi.

Tovarlarni sotib beruvchilar (dallol) bilan komitent o'rtasidagi hisoblashishlarni to'liq va tezkor olib borish va nazoratni kuchaytirish maqsadida 6890 schyotda 6891- "Komitentlarga to'lanadigan majburiyatlar" schyotini ochish va unda har bir komitent uchun aloxida analitik schyot yuritish maksadga muvofik bo'ladi. Analitik schyotning keyingi nomeri eksport-import kontraktining nomeri bilan bir xil bo'lishi lozim. Masalan, kontrakt № A-187, demak analitik schyot shif-ri ham 6891-A-187 bo'lishi kerak.

Ushbu taklif buyicha komissiya savdosidagi sodir bo'lgan muomalalar schyotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

a)komissiyaga olingan tovarlar sotilib xisoblangan daromad hisoblashish schyotiga tushdi:

Dt 5110-"Xisoblashish schyoti"

Kt 6891- A-187 "Komitentga to'lanadigan majburiyatlar" schyoti

b) tovarlarni sotish uchun xarajat kilindi:

Dt 6891- A-187"Komitentga to'lanadigan majburiyatlar" schyoti

Kt 5010, 5110, 2320, 9410-xarajatlarning turlari bo'yicha.

v) sotilgan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat va aksiz solig'i hisoblandi:

Dt 6891- A-187-"Komitentga to'lanadigan majburiyatlar" schyoti

Kt 6410-"Byudjetga to'lovlar yuzasidan qarzlar" schyoti.

Xorij firmalariga qo'shilgan qiymat solig'i chegirilgan xolda tovarning qiymati to'lanadi, agarda ular qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi shaxslar hisoblansa, u xolda tovarning qiymatiga QQS summasi kushiladi va komitent byudjetga QQS va aksiz hisoblamaydi, ya'ni komitentning hisobida soliq muomalasi qayd qilinmaydi.

g)komission daromad xisoblandi:

Dt 6891- A-187-"Komitentga to'lanadigan majburiyatlar" schyoti

Kt 9020-"Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar"

d) komitentga sotilgan tovarlar qiymati to'landi:

Dt 6891- A-187-"Komitentga to'lanadigan majburiyatlar"

Kt 5210-"Mamlakat ichidagi valyuta schyoti".

e) olingan daromad - gonorar komissionerning (dallolning) moliyaviy natijalar schyotiga olib boriladi:

Dt 9020-"Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar" schyoti

Kt 9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schyoti.

Eksport tovarlarni asosan kontraktga muvofiq, xorij firmalaridan oladilar. Ushbu kontraktga hamma shartlar - tomonlarning majburiyatlari, huquqlari va iqtisodiy jazolar ko'rsatiladi.

Xorij firmalari bilan hisoblashishni amalga oshirayotganda hisoblashish turlari va mol etkazib berish shartlariga amal qilinadi. Xorijdagi firmalar bilan xisoblashishning quyidagi shakllari amalga oshiriladi:

- akkreditiv usuli bilan hisoblashishlar;
- tijorat krediti bilan hisoblashishlar;
- o'tkazish vasiqa (veksel)lari (tratt) yordamida xisoblashishlar;
- xisoblashishning ikkala shakli qo'llangan xamda;
- ochiq, schyotlar bilan hisoblashishlar.

Akkreditiv bilan hisoblashish tartibi "Xujjatlar akkreditiv bilan hisoblashishning umumiy qoidasi va tartibi" (Jaxon savdo palatasi №400) bilan o'rnatilgan.

Ushbu xisoblashish tartibida to'lovchining iltimosi va ko'rsatmasiga asosan bank-emitent) quyidagi muomalalarni amalga oshiradi:

a) olingan yoki olinadigan tovarlarning qiymatini uchinchi shaxsga pulda yoki utkaziladigan vasiqa (veksel)da to'lashi;

b) boshqa bankka ushbu muomalalarni amalga oshirish huquqini berish mumkin.

Ushbu shakllardagi xisoblashishlar kuyidagi tartibda sodir bo'ladi:

- iste'molchi (importchi) sotuvchi (eksportchi) tovarlarning tayyorligi to'g'risidagi xabarni olgandan keyin o'zining bankiga eksportchining bankida kontraktga ko'rsatilgan summada akkreditiv ochish uchun ariza beradi. Ushbu arizada summani to'lash uchun zarur bo'lgan xujjatlar ko'rsatiladi va iste'molchining banki sotuvchiga xizmat kiladigan bankda tegishli summa bo'yicha belgilangan muddatda akkreditiv ochadi. Sotuvchi (eksportchi) tovarlarni jo'natgandan keyin uzining bankiga kontraktga ko'rsatilgan hujjatlarni topshirib tegishli summani akkreditivdan oladi va ushbu muomalani sotuvchining banki iste'molchining bankiga tegishli xujjatlar bilan etkazadi.

Kommerstiya krediti bilan xisoblashish tartibida sotuvchi (eksportchi) iste'molchiga (importchiga) tovarlar kiymatining bir qismini yoki umumiy summasini keyin to'lash sharti bilan tovar junatadi. Olingan tovarning qiymati kontraktga ko'rsatilgan muddatda va kredit foizi ko'shilgan xolda iste'molchi tomonidan tovar egasiga (eksportchiga) to'lanadi.

Vasiqa (veksel) yordamida hisoblashishda qarz majburiyati vasiqa bilan tasdiqlanadi. Vasiqa oddiy va boshqa shaxslarga o'tkaziladigan (tratta) shaklda bo'ladi.

Oddiy vasiqa yordamida hisoblashishda vasiqa beruvchi uni olgan shaxsga vasiqada ko'rsatilgan summani belgilangan muddatda to'lash majburiyatini oladi.

Utkaziladigan vasiqada (tratta) shaklida xisoblashishda vasiqa egasi (trassant)ga vasiqa beruvchi (trassat) unda ko'rsatilgan summani belgilangan muddatda boshqa shaxsga to'lash uchun buyruq beradi. Buning uchun vasiqa utkazuvchining yozuvi, imzosi va muxri bilan mustaxkamlanadi.

Inkasso shaklida eksportchi jo'natilgan tovarlar summasini importchining bankidan tegishli xujjatlarga asosan iste'molchining roziligini kutmay 3 kundan keyin oladi.

Buning uchun avvalo importchining roziligini (3 kun) kutishi va keyin bankdan talab qilishi lozim. Xozirgi sharoitda bu usul Uzbekistan Respublikasida kam qo'llaniladi.

Ochiq schyotlar bilan xisoblashish tartibi doimiy aloqada bo'lgan sotuvchi (eksportchi) va iste'molchilar (importchi) o'rtasida qo'llanilib, ushbu jarayonda tovar egasi molni jo'natgandan keyin tegishli xujjatlarni va kontraktda ko'rsatilgan summani belgilangan muddatda to'lash to'g'risidagi iltimos xatini iste'molchiga jo'natadi.

Ushbu muomalalarni va hisoblashish shakllarni amalga oshirish uchun tegishli schyotlar guruxida quyidagi schyotlarni ochish maqsadga muvofiqdir:

6010 - "Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" guruxida:

6011 - "Eksport tovarlari bo'yicha mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar";

6012 - "Eksport ishlar va xizmatlar bo'yicha mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar";

6013 - "Boshqa import muomalalari boyicha mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar";

6014 - "Kommerstiya krediti bo'yicha hisoblashish";

6020- "Berilgan vasiqalar bo'yicha hisoblashish";

5500- "Bankdagi maxsus schyotlar" guruxida:

5511 - "Mamlakat ichidagi akkreditivlar";

5512 - "Xorijdagi akkreditivlar";

5521- "Chek daftarchalari".

Akkreditivlar xorijda ochilganda ularning analitik hisobi akkreditivlar, davlatlar, kontrakt turlari va valyuta kodlari bo'yicha yuritilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki hozirgi kunda bizning mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga katta e'tibor qaratilmoqda va juda ko'plab imkoniyatlar yaratib berilmaqda. Hozirda O'zbekistonda chet el sarmoyalarini jalb qilish va eksport maxsulotlarini kopaytirishga katta etibor qaratilgan. Buning uchun xojalik yurituvchi subektlarga juda ko'plab imkoniyatlar yaratilgan. Biz faqat ushbu yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib yangicha g'oyalar yaratib O'zbekistonda raqobatbardosh maxsulotlar yanada ko'proq ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yishimiz kerak. O'z navbatida bunday maxsulotlar ishlab chiqarish uchun yetarlicha bilim, malaka va konikmalarga ega bo'lishimiz va ushbu maxsulotlar xisobini davlatimiz qonun qoidalaridan chetga chiqmagan holda hisobini yuritishni mukammal darajada o'rganishimiz shart.

Bu borada xurmatli prizidentimiz Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi aloxida etibor qaratgan.

Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir Ta'kidlash joizki, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida faqat uglevodorod xomashyosi, qimmatbaho va rangli metallar, uran xomashyosini qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalarni, shuningdek, tabiiy monopoliyalarning strategik infratuzilma tarmoqlarini – temir va avtomobil yo'llari,

aviatashuvlar, elektr energiya ishlab chiqarish, elektr va kommunal tarmoqlarini to'g'ridan-to'g'ri davlat boshqaruvida saqlab qolish maqsadga muvofiq, deb topildi.

Davlat aktivlarini xususiylashtirish, avvalo, chet ellik investorlarga sotish vazifalari qo'yildi va buning uchun tegishli sharoitlar yaratildi. Masalan, 506 ta mulk kompleksi tanlov asosida, investitsiya kiritish sharti bilan «nol» qiymatida yangi mulkdorlarga sotildi. Bu borada ana shu investorlar qariyb 1 trillion so'm va 40 million AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritish, shuningdek, 22 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish majburiyatini olganini qayd etish lozim. Shu bilan birga, 245 ta kam rentabelli va faoliyat ko'rsatmayotgan tashkilot to'liq tugatildi. Xususiylashtirish dasturida ko'zda tutilgan, foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan 353 ta davlat mulki obyekti buzilib, buning natijasida 120 gektar hajmidagi yer maydoni bo'shadi. Bu yerlarning qariyb 80 gektari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish va xizmatlar ko'rsatish obyektlari qurish uchun tadbirkorlar tasarrufiga berildi. Davlat mulki shaklidagi yana 319 ta ana shunday obyektlar inventarizatsiya qilinib, xususiy mulk shakliga o'tkazish uchun savdoga qo'yildi va o'tgan yili ularning 102 tasi yangi mulkdorlarga sotildi. Bundan tashqari, 378 ta aksiyadorlik jamiyatining davlat ulushi baholandi va chet ellik strategik investorlarga sotish uchun ochiq savdoga qo'yildi. Endi mikrofirmalar, kichik korxona va fermer xo'jaliklari faoliyati to'rt yilda bir marta, boshqa xo'jalik subyektlari faoliyati esa uch yilda bir marta rejali tartibda tekshiriladi va bunday tekshiruvlar faqat Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Bu borada moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlarni amalga oshirish muddati 30 kalendar kunidan 10 kalendar kuniga qadar qisqartirildi. Shuni qayd etish kerakki, bu normalar xususiy bank va moliya institutlariga ham tegishlidir. Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

2015-yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014-yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir. Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015-yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi.

Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida 370 megavatt quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasi barpo etildi, Chorvoq GESi gidrogeneratorlari modernizatsiya qilindi, Qo'ng'iroq soda zavodida kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarish kengaytirildi, «Samarqandkimyo» aksiyadorlik jamiyatida 240 ming tonna quvvatga ega bo'lgan murakkab tarkibli yangi o'g'itlar ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi. Shuningdek, «Motor zavodi» aksiyadorlik jamiyatining faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida traktor tirkamalari, jumladan, katta hajmli tirkamalar, maishiy texnika uchun tarkibiy qismlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etildi. Ana shunday muhim obyektlar haqida gapirganda, janubiy koreyalik investor va mutaxassislar bilan hamkorlikda Surg'il koni negizida barpo etilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasini alohida ta'kidlamogchiman. Umumiy qiymati 4 milliard dollardan oshadigan ushbu majmua dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan, yirik korxonalardan biri bo'ldi. Majmuaning ishga tushirilishi yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini beradi. Holbuki, bu mahsulot ilgari mamlakatimizga chetdan, katta valyuta hisobiga olib kelinardi. Ayni vaqtda mazkur korxona polietilen ishlab chiqarish hajmini 3,1 barobar ko'paytirish, mingdan ziyod yuqori malakali mutaxassislarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyat yaratishi bilan ulkan ahamiyatga egadir.

Xorazm viloyatida «Jeneral motors – O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 million dollarlik loyiha asosida «Shevrole Labo» kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu yerda yiliga fermerlarimiz va xususiy tadbirkorlarimiz uchun juda zarur bo'lgan 5 mingta ana shunday mashina ishlab chiqariladi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu model yangi «Xorazm avto» zavodida tayyorlanayotgan «Damas» va «Orlando» avtomobillaridan keyingi uchinchi turdagi avtomobil bo'ldi. Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kilovatt quvvatga ega bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Hozircha bu loyiha sinovdan o'tkazilmoqda. 2020-yilga borib mamlakatimizda har biri 100 megavatt quvvatga ega yana uchta quyosh elektr stansiyasini foydalanishga topshirish rejalashtirilmoqda. Samarqand – Qarshi temir yo'l uchastkasida yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» elektr poyezdi qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu Toshkent – Qarshi yo'nalishi bo'yicha yo'lovchi tashish sifati va sur'atini oshirish imkonini bermoqda. Natijada poytaxtimizdan Qashqadaryo viloyatiga va Qarshidan Toshkentga yo'lovchilar tashish vaqti ikki barobar qisqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O`zbekiston: bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li. - T. O`zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy isloxotlarni chukurlashtirish yo'lida. - T. O`zbekiston, 1995.
3. Kodirxonov S.B. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi. -T.: O'qituvchi, 1993.
4. Umarova M., Axmadjonov K., Eshboyev U. Buxgalteriya hisobi. -T.: 1999.
5. Yo'ldashev S.SH., Buxgalteriya hisobining chuqurlashtirilgan moduli. T.: 1998.
6. www.ziyonet.uz
7. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, "Xalq so'zi" 1996 y. 16 sentyabr.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent 1998 y.
9. «Yangi hisobvaraqlar rejasi» (loyixa) 1999 yil 2 aprel O'z. R. Moliya vazirligining 84- sonli buyrug'i.
10. «Yillik (chorak) hisobot shakllarini to'ldirish tartibi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1997 yil 15 fevral 5-sonli Yo'riqnomasi.
11. "Yuridik shaxslarda kassa va kassa muomalalarini yuritish qoidasi" O'zbekiston Markaziy banki (1998 yil 24 yanvar 46- son).
12. Umarova M. Eshboev O'. Axmadjonov K. "Buxgalteriya hisobi" Toshkent "Mehnat" 1999 yil.
13. Itkin Yu.M. Sotivoldiev A.S. "Buxgalterskiy uchets v usloviyax ro'nochnoy ekonomiki Respubliki Uzbekistan" Assotsiatsiya Buxgalterov i auditorov, T. 2000 g. 1-2 tom.
14. A.S. Sotivoldiev, Yu.M. Itkin. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi, T.:2002, 1-2 tomlar.
15. Zarabotnaya plata na predpriyatii / Xasanov N.A., Xaydarov Sh.U., Yugay L.P. – T.:Izdatelskiy dom «Mir ekonomiki imtiyoz prava», 2003. - 288s.

16. A.Ibroximov, A.Karimov "Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi". Toshkent "Uzbekiston" 1999 yil.
17. M.Umarova, U. Eshboev, K Axmadjonov "Buxgalteriya hisobi" Toshkent "Mexnat"-1999 yil.
18. Qodirxonov S.B. "Chet el firmalari boshqaruv hisobini yuritish asoslari" TDIU (o'quv-uslubiy qo'llanma - 1995 yil).
19. F.A.G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha mustaqil o'rganish uchun qo'llanma /«Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2000. - 368b.
20. Pardaev A.X. Boshqaruv hisobi. T.: «Akademiya nashriyoti», 2002, 176 b.
21. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. O'zbekiston Respublikasi buxgalterlar va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasining to'plamlari. T.: -2002 -190 b.
22. E.Gadoev, L.Yugay. Buxgalteriya hisobi: Savollar va javoblar. (kapital, asosiy vositalar, mehnatga haq to'lash, ishlab chiqarish zahiralar BK/5) –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1996. -304 b.
23. E.Gadoev va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. (Ta'sis hujjatlari hisob shakllari, hujjatlar aylanishi BK/4) savol va javoblar. –T.: «Iqtisod va huquq dunyosi, 1996. - 256 b.
24. I.A.Zavalishina. «Prakticheskoe nalogooblojenie», Izdatelskiy dom «Mir ekonomiki imtiyoz prava». –T.: -2003 -430 s.
25. Buxgalterskiy uchyot na predpriyatiyax na osnove izmenenogo Plan schyotov, vvodimogo s 2004 goda. Ch.1. / Spravochnoe posobie // Sost.:D.I.Shaulov, U.T.Kan. – 2-e izd.,T.: Izdatelskiy dom, «Mir ekonomiki i prava», 2003. - 304s.
25. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob,-T.: 2003, «Mehnat».

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari. Axborotnoma 1999-2000 yil sonlari.
2. "Bozor pul va kredit" jurnali 1998-2003 sonlari.
3. "Upravlencheskiy uchyot" (pod red. V. Paliya), Moskva INFRA-M, 1997 god.

4. "Buxgalterskiy uchyot dlya predprinimateley". F.Vud. Moskva OOO Askeri 1996 god.
5. "Soliq to'lovchining jurnali" 2000-2003yil sonlari.
6. "O'zbekiston Respublikasining Moliyaviy qonunlari" 2000-2003 yil sonlari.
7. "Soliq va bojxona xabarlari" gazetasining 1999-2003 yil sonlari.
8. "O'zbekiston iqtisodiy axbarotnomasi" davriy jurnali 2000-2003 yil sonlari.